

PUDRAT SHARTNOMASI 51

2022 yil "25" may

Qorovulbozor sh.

Qorovulbozor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keying o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan nizomi asosida harakat qiluvchi J.Adilov bir tomondan va Jayron plyus MCHJ (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizomi asosida harakat qiluvchi IO.Kamolov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: **Tinchlik MFY Bobur ko'chasi ko'p qavatli uylar oldida tashqi hojatxona qurish ishlari**, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

- 2.1. Shartnoma bahosi **80 800 000 (Sakson million sakki yuz ming)** so'mni tashkil etadi.
- 2.2. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
Oldindan 30% 24 240 000 (Yigirma to'rt million ikki yuz qirq ming) so'm
(bir vaqtning o'zida, avans to'lovi bilan bo'lib-bo'lib to'lash va h.k)

3.2. To'lov shakli: Pul ko'chirish yo'li
(to'lov talabnomasi, topshiriqnomasi, chek va h.k)

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, __kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi:

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil 25 may

Tugashi – 2022 yil 30 iyun

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish

maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangankeyin _____ kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida

nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz __oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

Jayron plyus MCHJ
Qorovulbozor tuman Tichlik MFY
Tel 94 127 77 44
H/R 20208000105357019001
MFO 00111
STIR 308201090
Turonbank Buxoro f



Y.Kamolov

Buyurtmachi:

Q-bozor Obodonlashtirish
boshqarmasi
Begzod ko'chasi 2 uy
Tel 65 364 13 57
SHXV 401722860062327065200110003
STIR 201428852
Qorovulbozor G'aznachilik bo'limi
H/R 23402000300100001010
MFO 00014
STIR 201122919



J.Adilov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma.

2. Loyihaning nomi **HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH
SHARTNOMASI №50**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi
ma'lumot.

“Nosir Qurilish Servis” MChJ bilan tuzilgan shartnoma loyihasi Qorovulbozor tuman hokimligi huziridagi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 20.05.2022 yilda ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 20.05.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qorovulbozor tuman Yuridik hizmat
ko'rsatish markazi boshlig'i**



G'. Qlichev

2022 yil 25 may